

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI G'OYASINI AMALGA OSHIRISH JARAYONLARI.

Matchanova Barno Irkinovna

*Urganch davlat pedagogika instituti,
filologiya va tarix fakulteti, milliy g'oya
va falsafa kafedrası dots.v.b phd
E-mail: matchanova.barno@mail.ru
tel: +998 91 429 90 94*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yangilangan milliy g'oyaning mazmuni, tamoyillari, targ'ib qilish texnologiyalari va uni rivojlantirishning obyektiv zarurati tahlil qilingan. Milliy g'oya va milliy mafkuraning tamoyillarini rivojlantirishdagi ayrim muammolar va ularning yechimlariga doir mulohazalar o'rganilgan. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish o'ta sharaflı vazifa ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: millat, davlat, taraqqiyot, yangi bosqich, milliy g'oya, milliy mafkura, ijodiy faoliyat, milliy tiklanish, milliy yuksalish, kontsepsiya, innovatsiya, g'oyaviy jarayonlar, ijodiy faoliyat.

Аннотация. В статье проанализированы содержание, принципы, технологии продвижения обновленной национальной идеи и объективная необходимость ее развития на новом этапе развития Узбекистана. Исследованы некоторые проблемы развития принципов национальной идеи и национальной идеологии и соображения по их решению. На основе программной идеи "от национального возрождения к национальному подъему" просвещено, что воспитание молодежи в духе преданности родному краю, формирование у нее патриотизма, инициативы, самоотверженности, нравственных качеств – задача исключительно почетная.

Ключевые слова: нация, государство, прогресс, новый этап, национальная идея, национальная идеология, творческая деятельность, национальное возрождение, национальный подъем, концепция, инновация, идейные процессы, творческая деятельность.

Annotation. The article analyzes the content, principles, technologies for promoting the renewed national idea and the objective need for its development at a new stage in the development of Uzbekistan. Some problems of the development of the principles of the national idea and national ideology and considerations for their solution are investigated. On the basis of the program idea "from national revival to

national upsurge”, it was enlightened that the education of young people in the spirit of devotion to their native land, the formation of patriotism, initiative, selflessness, and moral qualities in them is an exceptionally honorable task.

Key words: nation, state, progress, new stage, national idea, national ideology, creative activity, national revival, national upsurge, concept, innovation, ideological processes, creative activity.

Hozirgi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida insonparvar mafkura bilimlari va qadriyatlari asosida keskin, tubdan qayta qurish amalga oshirilmoqda. Avvalambor, jamiyat oliy maqsadining insonparvarlashuviga, ya'ni shaxsni bilimlar ijodkori sifatida shakllantirishga muvofiq yangilanmoqda. Bu borada, ma'naviy boylikka ustuvorlik berilgani holda ma'naviy va moddiy boylikning uyg'unlikda rivojlanishi sharti bilan o'zgarishlar natijasida yangi ma'naviy makon shakllanmoqda, ya'ni jamiyat insonning ijodiy mohiyatiga mos ravishda qurilmoqda. Shakllangan ma'naviy makonda insonparvar shaxs ma'naviy va moddiy jihatdan boy, shuningdek, jismonan sog'lom shaxs sifatida shakllanadi. Shaxs rivojlanishida ma'naviy boylik inson ishlab chiqargan bilimlar tufayli, moddiy boylikning asosi sifatida ustuvor ahamiyat kasb etadi va bunda milliy yuksalishga asoslangan g'oya ma'naviy kuch bo'lib xizmat qiladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, mafkura davlat muassasalari va davlat xizmatchilari, fuqarolik jamiyati institutlari, umuman davlat va jamiyatning barcha bo'g'inlarni birlashtiradigan, puxta o'ylangan milliy mafkura o'zbek jamiyati rivojlanishining bunday mas'uliyatli bosqichida birlashtiruvchi, dasturiy, yo'riq beruvchi, safarbar etuvchi va nihoyat himoya rolini bajarishi mumkinligini unutmasligi kerak. Bunday vaziyatda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlagani kabi: Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir. O'zbekistonni yangilash, milliy yuksalishni yangi bosqichga ko'tarish bu - o'z-o'zidan, osonlikcha bo'layotgani yo'q. Hammangiz ko'rib turibsiz, qanchalik og'ir va murakkab bo'lmasin, bugungi kunda zarur kuch va imkoniyat, mablag' topib, qancha-qancha katta dastur va loyihalarni amalga oshirmoqdamiz” [1, B.-113].

Insoniyatning ko'p asrlik tarixida milliy davlat qurishga intilgan har bir xalq o'z oldiga qo'ygan yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda millatni birlashtirish va safarbar qilishda milliy g'oya tayanch ekanligiga alohida e'tibor bergan. Bu haqida Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: “...biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston mafkurasi avvalo insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi bo'ladi. O'zbekiston taraqqiyotining bugungi jarayonlari milliy g'oya va ma'naviy yangilanish yo'nalishida ham jamiyat va davlatimiz rivojining yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi [2, B.- 293].

Kelajakda insonparvar jamiyatda insonning bilimlar ijodkori sifatidagi ijodiy mohiyati to'la, umumiy va yaxlit shaklda namoyon bo'ladi. Insonning to'la o'zini namoyon qila olishi shuni taqozo etadiki, mehnatning ijodiy mazmuni hukmron hisoblanadi, ya'ni individning faoliyati faqat ijodiy faoliyat bo'ladi, ijod shaxs faoliyati amalga oshirish jarayonida belgilovchi xususiyatga aylanadi. Shaxs hayotida ijodiy faoliyat ustun bo'lishi jarayonida insonning ijodiy mohiyatining to'liq ochilishi amalga oshiriladi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan hali hamon ishonchsizlik bilan qaralgan, O'zbekiston jamiyatini o'zgartira oladigan ma'naviy kuch – bu insonparvar mafkura, aniqrog'i, O'zbekiston davlatining insonparvarlik mafkurasiga asoslangan yangi mafkuraviy tuzilmasidir. Bu insonparvarlik mafkurasi o'zida, avvalambor, insoniylikka xos bilimlar va qadriyatlarni ifoda etadi, ular O'zbekiston jamiyatini o'zgartirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, endi shakllanayotgan Yangi O'zbekiston jamiyatining mafkurasi asosida yangilangan O'zbekiston hayot faoliyatining ma'naviy-madaniy sohasi, davlat tuzilmalari, iqtisodiy sohasi, ijtimoiy va oilaviy-turmush sohasining insonparvarlik ruhida o'zgarishi amalga oshiriladi.

Bu shuni anglatadiki, kelajakda insonparvar jamiyatda barcha soha va tuzilmalar shunday o'zgarishi kerakki, bunda jamiyatning barcha jabhalarida inson bilimlar ijodkori sifatida shakllanadi va rivojlanadi, ya'ni jamiyatni insonning ijodiy mohiyati, barcha narsa inson qadriga muvofiq tarzda yaratish, qurish zarur. Insonparvar mafkura tahlili mafkuraviy ta'limotlar tarixini, mafkuraning mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatlari, funksiyalari va rivojlanish darajalarini tahlil qilishni taqozo qiladi. Qisqacha aytganda, mafkuraning mohiyatini, avvalo, jamiyat rivoji va faoliyati asosida yotgan bilim va qadriyatlar sifatida talqin qilish mumkin. Mafkura – bu shunchaki mafkuraviy ta'limot emas, balki butun bir jamiyatning mafkuraviy tuzilishi, uning o'ziga xos “miyasi va tarqalib ketgan asab tizimi”dir.

Jamiyat hayotining asosini mafkuraga oid bilimlar va qadriyatlar tashkil qiladi. Bu mafkuraviy bilimlar va qadriyatlar jamiyat asosida yotadi. Tabiiyki, bu jamiyatdagi asosiy mafkuraga doir bilimlaridir. Jamiyatning mafkuradan xoli qilinishi ijtimoiy xaosga olib keldi. Natijada, hech kim qanday jamiyat qurish kerakligini, nimaga intilish kerakligini aniq bilmay qoldi. Ijtimoiy taraqqiyot istiqboli yo'qoldi, kelajaksiz jamiyatda esa, boshboshdoqliq, beboshlik, ishonchsizlik, kuch ko'rsatish, orsizlik, zo'ravonlik avj oladi. Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir paytda turli g'oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizning ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo'lmoqda [3, B.-273].

Mafkuraning funksiyalari qatorida mafkuralarni rivojlantirish darajalarini ajratish lozim. Nazariy daraja u yoki bu mafkuraning asosi hisoblangan fundamental bilim va qadriyatlarni ishlab chiqish va shaxslar ongiga singdirishni nazarda tutadi. Mafkuraning ikkinchi darajasi umumiy qabul qilingan mafkuraviy qadriyatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish bilan bog'liq. Bu daraja ko'pincha ommaviy mafkuraviy

tashviqot bilan aynanlashtiriladi. Mafkuraning uchinchi darajasi esa, mafkuraviy qadriyatlarning odatiy mafkuraviy tasavvurlar va qarashlar darajasida shakllanishi va ishlashini taqozo etadi. Shuningdek, har qanday mafkuraviy tizimda mafkuraviy psixologiya sifatida ta'riflanadigan mafkura darajasi mavjud. Bu darajaga mafkuraga oid his-tuyg'ularni kiritish mumkin.

Kelajak jamiyatning mafkurasi haqida fikr yuritar ekan, A.A. Zinovyev shunday yozadi: yangi jamiyat "o'zini, avvalambor, bitta maqsadga – yangi mafkura (kelajak mafkurasi)ni ishlab chiqish, uni vatandoshlari orasida ularning ijtimoiy ahvoli, etnik mansubligi, jinsi, kasbi va boshqa belgilaridan qat'iy nazar, targ'ib etish maqsadiga ega alohida birlashma sifatida anglashi lozim. Bunday kelajak mafkurasi turli jamiyatlarda, yer sayyorasida hozirgi shakllangan sharoitlarda faqat zamonaviy jamiyatlarning intellektual-ijodiy va ma'naviy hayoti yuksak darajada bo'lgandagina vujudga kelishi mumkin. Jamiyatda butun bir davrni qamrab oladigan darajadagi oliy maqsad, xususan – insoniyatning g'arblashtirishga muqobil ijtimoiy ideal uchun kurashiga asos soladigan maqsad bo'lishi kerak".

Yangi O'zbekistonning milliy yuksalish g'oyasi uning barqaror taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topmoqda. Global muammolarni tushunishning eng muhim nazariy natijasi barqaror rivojlanish konsepsiyasining shakllanishi edi. O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug' maqsad bosh g'oya sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu maqsad va vazifalardan kelib chiqib yangi ishlab chiqilayotgan milliy g'oyada quyidagi tamoyillarni qamrab olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Aholining turli qatlamlarida jamiyatda yuz berayotgan islohotlar, o'zgarishlarga munosabatning bir-biridan keskin farq qilishiga yo'l qo'ymaslik, jamiyatning barcha bo'g'inlariga haqqoniy, to'g'ri axborotlarning bir tekisda yetkazilishini ta'minlash, axborotlarning stixiyali tarqalishi aholining turli qatlamlarida maqsad va intilishlarning har xilligiga olib kelishini inobatga olgan holda tizimli chora-tadbirlarni ko'rish, buning uchun ta'lim muassasalari, mahallalarda foydali, samarali axborot tarqatishning turli usullaridan foydalanish lozim bo'ladi.

2. Maktabgacha ta'lim muassasasidan oliy ta'lim dargohigacha, mahallada va oilada ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirish maqsadida segmentar ma'naviyat, vertikal tizimdagi ma'naviyat formulalari, mexanizmlarini joriy qilish.

3. Jamiyatni kompleks taraqqiy etishini ta'minlash, ma'naviy yuksalish yo'lida har qanday "izm"larda ayblanishdan hayiqishdek siyosiy mutaassiblikdan voz kechish, sotsialistik, kapitalistik bo'lishidan qat'iy nazar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan barcha progressiv tamoyillarni hurmat qilish hamda ularni nazariy-ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va jamiyat hayotini yangilashga joriy qilish.

Shu bilan birga, barqaror rivojlanish tushunchasi ijtimoiy va tarixiy bilimlarning umumiy mantiqi bilan bog'liq. U yangi davrga ko'tarilgan falsafiy g'oyalarni, klassik

nemis falsafasini, rus falsafasini, G.Spenser falsafasini aks ettiradi. V.I. Vernadskiyning noosfera haqida ta'limotining muhim xususiyati shundaki, u muhim universal jihatlar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Noosfera ijtimoiy muammolarni hal qilish vositasi sifatida zo'ravonlikni bartaraf etish va global ijtimoiy-siyosiy birlik doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, milliy va siyosiy tuzilmalarning plyuralizmiga imkon berish uchun mo'ljallangan.

Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlagani kabi "...biz jahondagi ana shunday keskin va murakkab sharoitni hisobga olib, milliy ruhni izchil tarbiyalab, kamolga yetkazish, shu orqali uni milliy g'oyani amalga oshirishning, barcha sohalar, jumladan, harbiy hayotda ham yangi avlod kadrlarini, yangi qahramonlarni tarbiyalashning qudratli vositasiga aylantirish ustida samarali ish olib borayotganimiz yo'q" [4, B.-137]. Ayrim mutaxassislar fikricha, milliy g'oya va mafkurani yoshlarning qalbi va ongiga singdirish asosan ikki - ta'lim va tarbiya yo'nalishida olib boriladi [5, B.-243-244]. Ta'lim yo'nalishida g'oyaviy ta'lim muhim o'rin tutib, milliy g'oyaning maqsadi, vazifalari, qonun va kategoriyalari, bosh va asosiy g'oyalari, jahonda kechayotgan mafkuraviy kurash, dunyoning mafkuraviy manzarasi va shunga o'xshash boshqa mafkuraviy jarayonlarning borishi haqida odamlarga bilim berish asosida ularning qalbi va ongiga milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalarini singdirishga qaratilgan jarayonga aytiladi. G'oyaviy ta'lim turli ta'lim vositalarini qo'llash orqali: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim muassasalarida olib boriladi. Tarbiya yo'nalishida g'oyaviy tarbiya muhim o'rin tutib, u- inson ongi va tafakkuri tizimida shu yo'nalishdagi dunyoqarashni, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan mafkura asosida maqsadli shakllantirish jarayonidir. G'oyaviy tarbiya: - oila; - mahalla; - ijtimoiy-ommaviy institutlar; - ma'muriy-siyosiy tashkilotlar; - mehnat jamoalarida olib boriladi. Shuni unutmash kerakki, ta'lim tarbiyadan, tarbiya esa ta'limdan ajralmasdir. Bu xususda I.Karimov: "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"[6, B.- 22], - degan edi.

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasini keng targ'ib qilishda "Yuksalish" umummilliy harakatining o'rni ortib bormoqda. Bu harakat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF-5635-son "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoniga asoslanib tashkil qilindi [7]. Mazkur nodavlat tashkiloti O'zbekiston taraqqiyotiga befarq bo'lmagan barcha fuqarolar, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar, biznes hamjamiyati, akademik doira vakillarini amalga oshirilayotgan islohotlar atrofida ixtiyoriylik asosida birlashtirish maqsadida ta'sis etildi. Harakatning asosiy maqsadi — islohotlardan

barchani birdek xabardor qilish, chekkaroq hududlardagi aholiga yetkazish, qiziqish uyg'otish va harakatga keltirish. Shu bilan birga, ularning taklifini, muammolarini eshitadigan va muhokama qiladigan maydonni yaratib berish va shu orqali davlatga ishonchini mustahkamlash. Ushbu harakat tomonidan har yili davlat dasturlarida maqsadlarga erishishda muqobil hisobot tayyorlanadi va xalqqa taqdim qilinadi. Harakat 2022 yilda jamiyat hayotining turli sohalari bo'yicha 20 dan ortiq loyihalarni amalga oshirdi [8].

Ayni paytda "Yuksalish" umummilliy harakati — nodavlat notijorat tashkiloti hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy bo'linmalari faoliyat olib bormoqda. Ushbu harakat xalq va biznes hamjamiyati bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, jamoatchilik nazoratining samarali tizimini shakllantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shuningdek, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning sa'y-harakatlari va kuchlarini safarbar etish, rejalashtirilgan, shu jumladan, Davlat dasturida nazarda tutilgan islohotlarning amalga oshirilishi jarayonini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va xalq deputatlari mahalliy kengashlarida muhokama qilishda faol ishtirok etish kabi muhim vazifalarni amalga oshirib kelmoqda [9].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" J. 4 -Toshkent:, 2021. -B. 113.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi –Toshkent:, O'zbekiston, 2021. - B. 293.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent:, "O'zbekiston", 2021. - B. 273.
4. Mirziyoyev Sh. M. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" J. 4. -Toshkent:, 2021. - B. 137.
5. Yaxshilikov J.Y. Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya va mafkura O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Samarqand davlat universiteti. –Toshkent:, Fan, 2015. - B. 243-244.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent:, Ma'naviyat, 2008. - B. 22.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги ПФ-5635-сон 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисидаги фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 18.01.2019 й., 06/19/5635/2502-сон, 08.03.2019 й.
8. <https://yumh.uz/uzc/about>.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.02.2019 yil 13 fevraldagi 124-son "Yuksalish" umummilliy harakati — nodavlat notijorat tashkiloti va uning hududiy bo'linmalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.